

BANK SEKTORDA TAVAKKALCHILIKLARNI BOSHQARISH

METODOLOGIYASI

МЕТОДОЛОГИЯ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ

METHODOLOGY FOR RISK MANAGEMENT IN THE BANKING SECTOR

Narmuradov Farrux Ziyadullayevich,

mustaqil izlanuvchi

fz.narmuradov@gmail.com

Нармурадов Фаррух Зиядуллаевич,

независимый соискатель

fz.narmuradov@gmail.com

Narmuradov Farrux Ziyadullayevich,

independent researcher

fz.narmuradov@gmail.com

Kirish

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tavakkalchiliklarni boshqarish yo‘nalishida ham ko‘pgina o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, banklarda tavakkalchiliklarni boshqarish metodologiyasiga qo‘yilgan talablar bugungi shart-sharoitlariga muvofiqlashtirildi. 2023-yil 7-mart sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 4/11-son qarori¹ga asosan “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risida”gi Nizomi tasdiqlandi. Mazkur Nizomga asosan bankda tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, boshqarish va nazorat qilish metodologiyasi bo‘yicha asosiy talablar belgilangan. Bu o‘z o‘rnida 2023-yilga qadar tavakkalchiliklarni

¹O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining «O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi Qarori, 19.03.2019 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 2711-4.

boshqarish bo'yicha barcha metodologik hujjatlarni o'zgartirdi va tizimli ravishda boshqaruvni yangi uslubini tasdiqladi. Bunda, 2011-yil 25-mayda ro'yxatdan o'tqizilgan "Tijorat banklarining bank tavakkalchiliklarini boshqarishga nisbatan qo'yiladigan talablari to'g'risidagi Nizom" ning 10 ta moddasi 125 taga kengaytirildi va tegishli tartibda o'zgartirishlar kiritildi. AV-3427 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 4/11-sun qaroriga asosan "Banklar va banklar guruuhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi Nizomida keng va yangi talablar ya'ni:

- Tavakkalchiliklarni boshqarishning yangi tizimi;
- Ichki hujjat turlari, tasdiqlanish tartibi va yuritilishi;
- Tavakkalchilik chegaralari va risk-apetit belgilanishi;
- Stress-test o'tkazish tartibi;
- Yangi mahsulotlarni joriy etishda tavakkalchilik xulosasi;
- Tavakkalchiliklarni boshqarish ma'daniyati;
- Tashkiliy tuzilmasi va bank ichki organlariga qo'yilgan talablar;
- Bank ichki organlariga funksiya va majburiyatları;
- Har bir tavakkalchilik turi bo'yicha bo'linma vazifa va majburiyatları.

kabi yirik o'zgarishlar amalga oshirildi. Yangi metodologik hujjat qamrov doira va tizimdag'i boshqaruvni tartibga solishda katta ahamiyatga molik hujjat sifatida Bank va bank guruuhlarini ishini qatiyy belgilab berdi. O'zbekiston Markaziy Banki tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlar xalqaro hujjatlar (Basel, Xalqaro konferensiya hujjatlari va Yevropa old banklarining tajribasi)dan kelib chiqib amalga oshirildi. Yuqorida keltirib o'tilgan hujjat ma'lum bir talablarni qatiyy belgilab beradi. Misol tariqasida tavakkalchiliklarni boshqarishda Bank kuzatuv kengashiga qo'yilgan talablarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Bank kuzatuv kengashiga qo'yilgan talablar:

- har bir sezilarli tavakkalchilik bo'yicha tavakkalchilik chegaralarini va mazkur chegaralar buzilgan taqdirda ko'riliши zarur bo'lgan choralarни tasdiqlash;
- bankning tavakkalchiliklarni boshqarish tashkiliy tuzilmasini doimiy tarzda baholash va uning samaradorligini ta'minlash;
- bank tomonidan qo'llaniluvchi tavakkalchiliklarni baholash metodologiyasini yilda kamida bir marotaba ko'rib chiqish;
- bank mahsulotlari va xizmatlari bo'yicha xarajat hamda tavakkalchiliklarni inobatga olgan holda narx siyosatini tasdiqlash;
- tavakkalchiliklarni boshqarishga oid hisobotlarning shakli, davriyligi va hajmini belgilash, mazkur hisobotlarni ko'rib chiqish, ularning aniqligi hamda haqqoniyligini nazorat qilib borish;
- tavakkalchiliklarni boshqarishga va hisobotlarni tayyorlashga mo'ljallangan axborot tizimining joriy etilishini tashkil etish hamda bu boradagi ishlarni nazorat qilish;
- tavakkalchiliklarni boshqarish madaniyatini shakllantirish va uning maqbul darajada bo'lishini ta'minlash;
- tavakkalchiliklarni boshqarish tizimida aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishi, shu jumladan ichki audit xizmati, tashqi auditorlar, Markaziy bank va boshqa nazorat organlari tomonidan taqdim etilgan taklif hamda mulohazalarning inobatga olinishi va amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- risk-appetit bayonoti, tavakkalchiliklarni boshqarish siyosati (siyosatlari) va (yoki) tavakkalchilik chegaralari buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan operatsiya yoki harakatlarni batafsil muhokama qilish;
- bankning risk profili tasdiqlangan risk-appetitga muvofiq bo'lmasa yoki muvofiq bo'lmasligi kutilayotgan bo'lsa, tavakkalchiliklarni kamaytirishga qaratilgan zaruriy choralarни ko'rish;

- kapital monandligini baholash bo'yicha ichki jarayonlar (ICAAP) (joriy qilingan bo'lsa), stress-testlar va tavakkalchilik xususiyatlari asosida bank kapitaliga nisbatan tabaqalashtirilgan talablarni belgilash;

- bank banklar guruhining asosiy banki bo'lgan taqdirda, tavakkalchilik bo'linmasi tomonidan kiritilgan konsolidatsiyalashgan prudensial normativlarga doir hisobotlarni o'rganib chiqish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash, ularning ijrosini nazorat qilish.

- Kuzatuv kengashi tavakkalchilik bo'linmasi va komplaens tavakkalchiligini boshqarishga mas'ul tarkibiy bo'linmani tashkil etishi hamda ularning mustaqilligini ta'minlashi kerak.

Buning natijasida O'zbekiston Respublikasi Bank sektorida juda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari tubdan o'zgarib bormoqda. 2024-yilning birinchi choragida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan ushbu xalqaro tajribga ega metodikani banklararo yoyish rejasi amalga oshirilishni boshladi va ichki me'yoriy hujjatlar o'zgartirildi. Ushbu ijobiy ssenariy bankdagi tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi holatini o'zgartirishi va kutilgan / kutilmagan hodisalarни klassifikatsiyalash (tasniflash) va oldini olish modellarini yaratishda yordam beradi. Har bir tavakkalchilik turi bo'yicha alohida tavakkalchilik modelini ishlab chiqish, nainki COSO (AQSH) va FERMA (Yevropa) bo'lsin aniq bir metodika ostida ishlab chiqilishi kundek ravshan. Shu sababli, ta'kidlab o'tilgan o'zgarishlar bank ravnaqi yo'lida juda katta burilish yasaydi.

Kelajakda kutilayotgan natijalar

Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi kundan-kunga ko'pfunksional va murakkab, ammo ishonchli va shaffof bo'lib bormoqda. Bu xalqaro tajriba, standart va etikalarni qabul qilish orqali yuzaga kelmoqda. Kelgusi 5-7 yillik ichida tavakkalchiliklarni boshqarish tizimida har bir tavakkalchilik turi uchun alohida model va platformalar yaratilishi va ko'rsatkichlar nazorat, stress-test shablon shakllari to'liq avtomatlashitirilgan bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tavakkalchiliklarni boshqarish uchun metodologik yondashuv juda muhim va zaruriy predmet hisoblanadi. Hozirda esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan xalqaro standartlarga asoslangan metodologik hujjatlar mahalliy banklarning ish jarayonlariga kiritib borilmoqda. Shu o'rinda banklarning tavakkalchilikni boshqarish bo'yicha metodologik aspect indeksi ham ortib bormoqda va bu jaratyonlarni kompleks ta'rizda olib borilishi bank tizimida risklarni baholash va ularni bartaraf etishga kata hissa qushilgan hisoblanardi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvinga «O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritish haqida»gi Qarori, 19.03.2019 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2711-4.

2. Белан А.С. Анализ эффективности системы оценки финансовых рисков на базе технологии искусственного интеллекта для предприятий банковской отрасли / А.С. Белан, Е.И. Королева // Конкурс лучших студенческих работ : сб. ст. XVII Междунар. науч.-исслед. – Пенза, 2023. – С. 60-64. – Электрон. копия доступна в науч. электрон. б-ке eLibrary.
URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=53979106> (дата обращения: 19.01.2024). – Доступ после регистрации.

3. Ерохина В.Н. Развитие методологии финансового анализа и оценки рисков коммерческой организации / В.Н. Ерохина, Н.А. Антонова // Вестник МГЭИ (on line). – 2021. – № 4. – С. 24-31. – URL: <https://mgei.ru/zhurnal-vestnik-mgeu/arkhiv/> (дата обращения: 19.01.2024).

4. Костин А.Н. Совершенствование процедуры анализа финансовых рисков и их оценки // Экономика и предпринимательство. – 2020. – № 12 (125). – С. 952-956. – Электрон. копия доступна в науч. электрон. б-ке eLibrary.

URL: <https://elibrary.ru/ytblyc> (дата обращения: 19.01.2024). – Доступ после регистрации.

5. Павлова А.С. Сравнительный анализ проведения оценки риска искажения отчетности в рамках внутреннего финансового аудита и аудита по 307-ФЗ // Управленческий учет. – 2023. – № 7. – С. 91-99.

6. Соколова Е.А. Современная методика оценки и анализа рисков компаний при проведении внутреннего финансового контроля, их диверсификация / Е.А. Соколова, И.С. Агейкина // Актуальные вопросы экономики и управления : материалы междунар. науч.-практ. конф., посвящ. 90-летию Смолен. фил. Финансового ун-та. – Москва, 2022. – С. 378-383.